

## МАТЕМАТИКА ФАНИНІ О'ҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНЫШ

*Abdumajitova O'g'iloy Axmadjonovna*

*Marg'ilon shahar 15-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu maqolada, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola, innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Interfaol ta'lim vositasida matematika darslarida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'ra bilish. Shunday qilib, ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash haqida so`z yuritligan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim, matematik analiz, geometriya, muktab, fan, metodik sistemasi, pedagogika.

**Аннотация:** Современные педагогические технологии играют важную роль в совершенствовании образовательного процесса. В статье анализируется влияние современных педагогических технологий на качество образования. В статье рассматриваются возможности повышения уровня знаний студентов и повышения эффективности образовательного процесса за счет инновационных подходов. Формировать культуру самостоятельного мышления на уроках математики посредством интерактивного обучения, а также уметь прогнозировать эффективность обучения и воспитания учащихся. Таким образом, в данной статье рассматривается использование современных педагогических технологий в обучении математике.

**Ключевые слова:** Современные педагогические технологии, образование, математический анализ, геометрия, школа, наука, методическая система, педагогика.

**Abstract:** Modern pedagogical technologies play an important role in improving the educational process. This article analyzes the impact of modern pedagogical technologies on the quality of education. The article considers the possibilities of increasing the level of knowledge of students and increasing the efficiency of the educational process through innovative approaches. The formation of a culture of independent thinking in mathematics lessons through interactive learning, as well as the ability to predict the effectiveness of educational and upbringing of students. Thus, this article discusses the use of modern pedagogical technologies in teaching mathematics.

**Keywords:** Modern pedagogical technologies, education, mathematical analysis, geometry, school, science, methodological system, pedagogy.

## KIRISH

XXI asr – bu texnologik inqilob va global innovatsiyalar davri bo'lib, u ta'lif sohasini ham chuqr o'zgartirib yubordi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lif jarayonini yanada samarali va sifatli qilishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va bilim olish jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Maqsad: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lif sifatiga ta'sirini tahlil qilish va ulardan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatish.

## TAHLIL VA MUHOKAMA

Pedagogik texnologiya – bu ta'lif jarayonini loyihalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun ishlataladigan ilmiy uslub va vositalarning majmuasi hisoblanadi

Ushbu konsepsiya o'z ichiga faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki ta'lif jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni ham oladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar klassik metodlardan farqli ravishda digital vositalar, interaktiv platformalar va virtual muhitni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarga ta'lif jarayoniga erkin kirish, mustaqil ravishda bilim olish va ularni o'zlashtirish imkoniyatini beradi .

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar markazida o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan faoliyati turadi .

Bunday yondashuvlar orqali ta'lif jarayoni yanada individualizatsiyalashadi va har bir talabaning ehtiyojiga mos keladigan tarzda shakllantiriladi. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyihalari asosida o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi pedagogik jarayon bo'lib, u o'quvchi talabaning extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija bo'lishga qaratilgandir. Pedagogik texnologiya mohiyatini to'g'ri tushunish, har tomonlama tahlil qilgan holda ilmiy tarzda o'zlashtirish, tatbiq etish yo'llarini qidirish o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Ta'lif axborot muhitining kun sayin kengayotganligi, o'quvchining o'zlashtirish darajalarining pastligi (ularni o'zgaruvchan sharoit, vaziyatlardan to'g'ri yo'l topish chiqa olishlari) kabi holatlar ta'lif – tarbiya jarayoniga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, o'qitishning samarali yo'llarini izlashni talab etadi. Bu texnologiyani o'rganish, amalda qo'llash ta'lif – tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqqan. Pedagogik texnologiyaning mohiyati – ta'lif jarayonini jadallashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish va uning natijalarini sur'atini tezlashtirish, natijalarini obyektiv, holisona baholay olish, ko'zlangan natjalarga erishishni kafolatlashga

qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi. Boshqacha aytganda, o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarini aniq maqsad asosida kutilgan natijalarni beradigan tarzda tizimli loyihalash tushuniladi. Ta‘lim – tarbiya jarayonini loyihalash, loyihalangan pedagogik texnologiyani boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish jarayoniga tadbiq etish o‘qituvchidan texnologik loyihalash qobiliyatini talab etadi. Zamонавиy o‘qituvchining pedagogik faoliyati tuzilishi, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, o‘qitish ko‘nikma va malakalari – ta‘lim texnologiyalarini tatbiq etishning zarur sharti, o‘quvchi bilish faoliyatini rag‘batlantirib borish, didaktik tamoyillari haqida bilimga ega bo‘lish zarur. Ta‘lim texnologiyalari – o‘quv jarayonini qulaylashtirish vositasi. Ta‘lim texnologiyalarining o‘quvchilar individual xususiyatlariga moslashishi, tanlash holatlari haqida yaxshi tushunchaga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu talablarning amalga oshishi quyidagi shart – sharoitlarni taqozo etadi: -maktablarda doimiy ravishda pedagogik texnologiyalarni o‘rganish; -umumlashtirish; -amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy – amaliy seminarlar tashkil etish; -o‘qituvchi o‘z ustida doim ishlashi va yangi kitoblar bilan tanishib borishi. Matematika o‘qitish jarayonida yangi ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta‘minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o‘z ustida ishslash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratadi. Shu yerda bu boradagi ichki imkoniyatlarni ochib berish haqida so‘z yuritamiz. Boshlang‘ich ta‘lim o‘zga ta‘lim bosqichlaridan integrativ, o‘yinga asoslangan ta‘lim texnologiyalariga beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Lekin bolaning bog‘cha davridan mакtab davriga o‘tishi ancha murakkab ruhiy – hissiy ichki jarayonlar asosida amalga oshadi. Bu davrda aksariyat bolalarda chuqur psixologik qiyin holati kuzatiladi. Buni bola ichki dunyosini yaxshi his eta oladigan, tom ma‘nodagi jonkuyar pedagog nuqtai nazari bilan yondoshuv, suyanchiq deyish mumkin. Ko‘pincha o‘quvchi o‘qituvchi faoliyatini aynan takrorlaydi, ya‘ni ta‘lim mazmunini ongli emas, ongsiz ravishda qabul qiladi. Mazkur holatning oldini olish uchun, 1 – sinf o‘quvchisini ongli o‘quv faoliyatiga jalb etish uchun nima qilish kerak? Bilim qanday o‘zlashtiriladi? Doimiy usulda dars (eski metod). O‘qiganda 10 % bilim o‘zlashtiriladi. Eshitilganda esa 20 % o‘zlashtiriladi. Ko‘rganda 30 % o‘zlashtiriladi. Eshitib, ko‘rganda esa 50 % bilimni o‘quvchi o‘zlashtiriladi. Bizga ma'lumki, matematika darslarida o‘quvchilar o‘qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so‘ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

## XULOSA

Matematika o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni

yechishga tadbiq qila olishga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyatga bog'lay olish imkoniyatlarinitarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarini hal qilishga o'rgatiladi.

#### **Foydalanilgan dabiyotlar:**

1. Azizzodjayeva N.H "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat"- Toshkent.: TDPU, 2003, 174 bet.
2. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O'zinkomsentr, 2003, 160-bet.
3. Axmedov M va boshqalar 1-sinfda matematika darslari – Toshkent.: O'zinkomsentr, 2003, 96-bet.
4. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M. E. "Birinchi sinf matematika darsligi." – T.: "Sharq", 160-bet.